




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 7650,2 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan (102,1 foizni), shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari 4098,5 mlrd.so'mni (102,7 foiz) yalpi chorvachilik mahsulotlari, 3359,8 mlrd.so'mni (101,5 foiz) qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar xajmi 21,2 mlrd.so'mni (55,0 foiz), baliqchilik xo'jaliklarida 30,8 mlrd.so'mni (145,9 foiz), ovchilik xo'jaligida 0,4 mlrd.so'mni (100,0 foiz), o'rmonchilik xo'jaliklarida 139,5 mlrd.so'mni (102,8 foizni) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Quvasoy shahar (113,3 foiz), So'x tumani (111,6 foiz), O'zbekiston (110,5 foiz), Uchko'priq (110,4 foiz), Rishton (110,3 foiz) tumanlarida kuzatildi. Qo'qon shahar (82,4 foiz), Yozyovon (92,4 foiz), Farg'ona tumani (93,4 foiz) va Furqat (93,7 foiz) tumanlarda esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Oltiariq tumanining ulushi 9,6 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Quva tumani ulushi 7,8 foizni va Beshariq tumani 7,1 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush esa Qo'qon shahar (1,4 foiz), So'x tumani (1,5 foiz) bilan qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,2 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 102,7 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 101,5 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 77,3 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 20,2 foizi – fermer xo'jaliklariga, 2,5 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4098,5 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,7 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 55,0 foizni tashkil qildi.



Hosilni yig'ib olish. 2019 yilning yanvar – iyun oylarida 455,5 ming tonna (114,8 foiz) don, 184,1 ming tonna (106,4 foiz) kartoshka, 381,0 ming tonna (100,0 foiz) sabzavot, 4,1 ming tonna (76,9 foiz) poliz, 153,2 ming tonna (103,4 foiz) meva va rezavorlar, 1,9 ming tonna (106,5 foiz) uzum yig'ib olindi. Bundan tashqari 4,9 ming dona terak ko'chatlari (109,6 foiz), terak qatorlari 0,5 ming dona (108,2 foiz) ni tashkil etdi.

Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi

Don



Fermer xo'jaligi
93,6

Dexqon xo'jaligi
3,3

Qishloq xo'jaligi
faoliyatini amalga
oshiruvchi
korxonalar 3,1

Kartoshka



Fermer xo'jaligi
0,8

Dexqon xo'jaligi
97,9

Qishloq xo'jaligi
faoliyatini amalga
oshiruvchi
korxonalar 1,3

Sabzavotlar



Fermer xo'jaligi
1,5

Dexqon xo'jaligi
97,9

Qishloq xo'jaligi
faoliyatini amalga
oshiruvchi
korxonalar 0,6



Poliz



Fermer xo'jaligi
18,2

Dexqon xo'jaligi
81,8

Qishloq xo'jaligi
faoliyatini amalga
oshiruvchi
korxonalar 0,0



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida umumiy hajmining 97,9 foizi kartoshka, 97,9 foiz sabzavot, 81,8 foiz poliz, 57,4 foiz meva va rezavorlar, 97,1 foiz uzum, ular xisobiga to'g'ri keladi.

Chorvachilik




2019 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3359,8 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,5 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 45,0 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar

tomonidan tirik vaznda 76,9 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-iyungga nisbatan 1,3 foizga), 442,0 ming tonna sut (1,4 foizga), 267,3 mln.dona tuxum (11,9 foizga ko'p), 900 tonna jun (5,6 foizga kop) ishlab chiqarildi.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi







Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 89,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 94,9 foizi, tuxumning 64,4 foizi, junning 95,9 foizi, ovlangan baliqni 7,1 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 997,4 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 360,7 ming boshga, qo'y va echkilar – 857,5 ming boshga, parrandalar – 8246,4 ming boshga etdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 0,3 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 7,6 ming boshga, (2,2 foizga), qo'y va echkilar – 26,6 ming boshga (3,2 foizga) ko'payib, parrandalar – 1758,0 ming boshga (27,1 foizga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi




2019 yining 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,8 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 6,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 92,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 10,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 58,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 30,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Mamlakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek viloyatimizda aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilishi hamda berilayotgan imtiyozli kreditlar natijasida viloyatimizda 2019 yil 1 iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar 8246,4 ming boshni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 27,1 foizga ko'p, shundan fermer xo'jaliklarida 845,0 ming bosh (42,8 foiz)ga, dehqon (shaxsiy yordamchi xo'jaliklari) da 4850,8 ming bosh (14,6 foiz)ga, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 2550,6 ming bosh (53,1 foiz) ga ko'paygan.


Tuxum yetishtirish barcha toifadagi xo'jaliklarda 267,3 mln.donani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 11,9 foizga, yoki 28,4 mln donaga oshgan, shundan fermer xo'jaliklarida 20,8 mln.dona (71,6 foiz)ga, dehqon (shaxsiy yordamchi xo'jaliklari)da 1,2 mln.dona (0,7 foiz)ga, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 6,3 mln.dona (16,3 foiz)ga ko'paygan.

XO'JALIK TOIFALARI BO'YICHA OVLANGAN BALIQ



Viloyatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmlarini ko'paytirish, xususan ichki va tashqi bozorlarni arzon va sifatli baliq mahsulotlari bilan to'ldirish bo'yicha viloyatda 297 ta dan ortiq baliqchilik xo'jaliklari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib ular tomonidan joriy yilning yanvar-iyul oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarida 2025,9 tonna miqdorida baliq ovlanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 137,6 foizni tashkil etdi.

SHAHAR VA TUMANLAR KESIMIDA PILLA XOM-ASHYOSI ETISHTIRILISHI



Pillachilik soxasini rivojlantirishda davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar berilishi, ilg'or texnologiyalarni qo'lanilishi, klaster usuliga o'tish xamda viloyatda takroriy pilla etishtirishni yo'lga qoyilishi xisobiga 2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha jami 1836,8 tonna miqdorida pilla xom-ashyosi etishtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 165,8 foizni tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi
mas'ul shaxs: Yakhyojon Esonmirzaev

• 73 241-72-42